



MARKAZIY OSIYODA MUSULMON MADANIYATI
SHAKLLANISHIDA FAHRIDDIN ROZIY ILMIY MEROSINING
AHAMIYATI

Ne'matov Zokirjon Muhiddin o'g'li

O'zMu "Falsafa (tizimli tahlil va mantiq)" yo'nalishi

2-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada Fahridin Roziyning hayot yo'li uning Markaziy Osiyo madaniyati shakllanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, U yashagan davr tarixiy shart-sharoitlari ko'rib chiqilib uning ilm-fan rivojiga ta'siri asoslanadi. Qolaversa, Fahridin Roziy fanlar klassifikatsiyasi va ilmiy merosi masalasiga alohida diqqat qaratiladi. Maqola tayyorlash jarayonida turli tadqiqot usullari qo'llanildi, jumladan, tarixiy-analitik usul ham ishlatilib, u o'rganilayotgan davrga oid voqealar va hujjatlarni tahlil qilish imkonini berdi

Annotation. This article examines the life journey of Fakhr al-Din al-Razi and his contributions to the classification of sciences in Islamic philosophy. Additionally, the historical conditions of his era are analyzed, substantiating their impact on the development of science. Furthermore, special attention is given to Fakhr al-Din al-Razi's classification of sciences and his scholarly legacy. Various research methods were employed during the preparation of the article, including the historical-analytical method, which allowed for the analysis of events and documents pertaining to the studied period.

Аннотация. В данной статье рассматривается жизненный путь Фахриддина Рази и его вклад в классификацию наук в исламской философии. Кроме того, анализируются исторические условия его эпохи, обосновывается их влияние на развитие науки. Особое внимание уделяется классификации наук Фахриддином Рази и его научному наследию. В процессе подготовки статьи были использованы различные методы исследования, в том числе историко-



аналитический метод, позволивший проанализировать события и документы, относящиеся к изучаемому периоду.

Kalit soʻzlar: *Borliq, kalom, tafsir, ratsionalizm, Ilohiyot, Halbaliya, Shofeʼiya,*

Key words: *Existence, Kalam, Tafsir, rationalism, theology, Halbaliyah, Shafiʼiyyah.*

Ключевые слова: *бытие, калам, тафсир, рационализм, теология, Ханбалия, Шафиизм*

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy tahlil kabi ilmiy-falsafiy tamoyillardan foydalanildi.

Kirish va mavzuning dolzarbligi. Rivojlanib borayotgan mamlakatimiz taraqqiyoti hosilasi sifatida ilm-fan, din , falsafa kabi sohalarda olib borilayotgan tadqiqotlar soni ham ortib bormoqda. Fahriddin Roziy kabi islom falsafasi vakillari hayot yoʻli asarlarining mohiyatini oʻrganish atrofimizda yuz berayotgan turli voqea hodisalarga nisbatan , maʼrifatli islom gʻoyalari asosidagi dunyoqarash va oʻz yondashuvimizni shakllantirishga ulkan hissa qoʻshadi. Fahriddin Roziy asarlarini har tomonlama oʻrganish islom ilm-fanining jahon intellektual anʼanalariga doimiy taʼsirini chuqur anglash imkonini beradi Roziyning yunon falsafiy anʼanalarini islom ilohiyoti bilan sintezi oʻrta asrlar ilmining dialogik tabiatini, uning klassik bilimlarni saqlash va Gʻarb dunyosiga yetkazishdagi muhim rolini misol qilib koʻrsatadi. Zero Prezident Shavkat Mirziyoyev Islom Hamkorlik Tashkiloti Tashqi Ishlar Vazirlari Kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqida taʼkidlab oʻtganidek:

“Dunyo shiddat bilan oʻzgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo boʻlayotgan bugungi kunda maʼnaviyat va maʼrifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga intilishiga eʼtibor qaratish har qachongidan ham muhimdir. Aynan taʼlim va maʼrifat bashariyat farovonligining asosiy omillaridan hisoblanadi, insonlarni ezgulikka daʼvat etadi, saxovatli, sabr-qanoatli boʻlishga



undaydi. Muqaddas islom dinimiz bizga aynan shuni o'rgatadi. Bunday yondashuv — davr talabidir"

Abu Abdulloh Muhammad Ibn Umar Fahriddin Roziy 1149-yilda Eronning Ray shahrida hozirgi Tehronga yaqin joyda tug'ilgan. U Quraysh qabilasidan Abu Bakr Siddiq r.a. avlodlaridan bo'lgan.^[1] Roziy Abul Fazl. Abul Ma'ali, al-Imom,, Ibn al-Katib, Katib ar-Ray va Shayx ul-Islom nomlari bilan ham ulug'langan. Uning otasi Ziyouddin (1164 v.) Shofe'iy va Ashariy e'tiqodiga e'tiqod qilgan bo'lib o'z davrining hurmatli ulamolaridan hisoblangan. Fahriddin Roziyning fiqh va kalom ilmidan ilk ustozlari ham otasi hisoblanadi. Roziy Shofe'iy ta'limoti doirasida ulg'aygan bo'lishiga qaramay unda mustaqil fikrlash qobiliyatlari sezilib turadi.

Otasining vafotidan keyin avval Ahmad ibn Zarinkum al-Kamal al-Simnoniy keyinroq Ozarbayjonning Marog'a shahridan bo'lgan mashxur faylasuf Majd al-Din al-Jilidan ta'lim oladi. Majd al-Din al-Jili al-G'azzoliyning o'quvchisi Muhammad ibn Yahyo al-Naysaburidan ta'lim olgan edi. Ilohiyotshunoslik bo'yicha ustozlari silsilasi esa Abul Hasan al-Ashariga ulanadi. So'ngra Fahriddin Roziy falsafa o'rganishni mustaqil holatda davom ettirdi.

Umri davomida ko'plab islom o'lkalariga masalan O'rta Osiyo va Shimoliy Hindistonga sayohat qilgan va bu sayohatlari davomida bir necha hukmdorlar bilan yaqin aloqalar o'rnatgan jumladan Xorazmshoh Alovuddin (v.1200 y) bilan va uning o'g'li va vorisi Muhammadga ustozlik qilgan (v.1219-y.) Hukmdorlar bilan aloqalari natijasida u keyinchalik katta obro' va mablag' to'playdi. G'aznaviy sulton G'urid unga Hirot shahrida madrasa qurib bergan va bu madrasada Fahriddin Roziy juda ko'plab o'quvchilar yetishtirgan.

Tarixiy shart-sharoit natijasi o'laroq Abbosiylar halifaligi hokimiyati mustahkam o'rnatilgan hududlarda erkin fikr yurituvchilar uchun ta'qiblar yetib bormaganligi omili tufayli bu yerlarda Roziy ratsionalizmining keng tarqalishi uchun qulay sharoit mavjud edi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki o'n uchinchi asrga kelib ham Bag'dod halifasi nafaqat davlat rahbari balki sunniylik oqimining diniy rahnamosi ham hisoblanar edi. Ammo, XII asrning ikkinchi yarmida Saljuqiy

^[1] Muhammad al-Hilawi, Mereka Bertanya Tentang Islam, Gema Insani, Jakarta, 1998, p 67.



hokimiyatining zaifligi omili Abbosiylar xalifaligining hududiy jihatdan kengayishi hamda mustahkamlanishi uchun tarixan keng sharoit hozirladi. Bu Iroqning ko'p qismida mustaqil hukmronlik qilgan. Ammo bu paytga kelib Saljuqiy va G'aznaviy Turkiy sivilizatsiya davlatlarining katta mavq kasb etganligi tufayli o'sha davrdagi Abbosiylar halifasi Al Nosir o'zidan oldingi xalifalar Al Qosim va Al Qodir singari an'anaviy diniy mustamlakachilik siyosatini amalga oshira olmas edi. Bu esa tabiiyki yuqoridagi yangi sivilizatsiyasi davlatlari bilan kelishish, ularga muayyan avtonomiya huquqlarini bergan holda mafkuraviy jihatdan bo'lsada diniy yetakchilik mavqeini saqlab qolish zaruratini taqozo etardi.

Ko'plab o'lkalarga sayohati sababli Fahriddin Roziy Karomiylar, Mu'taziliylar va Hanbaliylar bilan ko'plab bahs-munozaralarda ishtirok etadi. Bahslashish, argumentatsiyalash qobiliyati unga shuhrat olib keladi. O'zining bahslari qayd yozib borib keyinchalik uni *Munozarat* nomli kitobga jamlaydi.^[2]

Bu asar 16 jildan iborat bo'lib kalom va fiqhga oid mavzularni O'z ichiga qamrab oladi. Munozarat kitobida bahs olib borish uslubi va raqiblari haqida, ularning bahsda yo'l qo'ygan kamchiliklari haqida ma'lumotlar keltiradi. Masalan al-Radi al-Nishopuriyni u to'g'riso'z lekin sabab keltirishda sekin, G'azna shahri qozisini hasadgo'y va beilm, Buxorolik mashxur ilohiyotchi Sharafiddin Muhammad al-Masudiyni dimog'dor va Al-G'azzoliyga haddan ortiq tayanuvchi deb ta'riflaydi.^[3]

Ayni paytda Buxoroda Makka haji uchun O'ziga munosib sherik bo'la oladigan olim yo'qligini ta'kidlagan Nur al-Sabuni bilan uzoq tortishuvdan so'ng uni xato so'zlaganini tan oldiradi.

Munozara kitobida Ar-Rozi Imom G'azzoliyning Shifo al-Alil, Mustafo va Tahafut ul-falasifa kitoblarini ham tanqid ostiga olgan. U islom o'lkalari bo'ylab sayohati davomida Karomiylar va Mu'taziliylarni sunniylik oqimiga o'tkazish uchun bahslarga kirishadi. Firuzkuh shahridagi Karomiylar boshchisi bilan bo'lgan bahs tufayli karomiylar isyon ko'taradi va Roziyni juma namozida Ibn Sino va Aristotel

^[2] E.g. al-Qazwani, athar, 252–3; cf. Tafsir, 7, 88; 8, 69–71.

^[3] Munozarat, p.5



kitoblarini o'qiganligini sabab qilib ko'rsatib kufr keltirganlikda ayblashadi. Karomiylarning uni o'ldirish kayfiyati sabab u shaharni tashlab ketishga majbur bo'ladi.

Unga qarshi oqimlar dushmanligi tufayli u vafotidan so'ng o'zini sirli ravishda uzoq joyga dafn qilishni buyuradi. Fahriddin Roziy 1210-yilda Hirot shahrida vafot etgan.

Fahriddin Roziy asarlarida fanlar tasniflanishi bo'yicha o'zidan oldingilardan farq qiladi. Roziy boshqalardan farqli ravishda turli muammolarni muhokama qiladi va ular bilan yangi tartibda shug'ullanadi. Uning mavjudlikka bo'lgan qarashini aks ettiruvchi namuna bo'lib, uni keng qamrovli epistemologik klassifikatsiyaga muvofiq taqdim etgan. Roziy bir tomondan Ibn Sinodan boshlab al-Mabahisul-mashrikiyya va al-Mulahhas bilan davom etgan ensiklopedik uslubda asarlar yozishni davom ettirdi, ikkinchi tomondan esa mazmun va tashkilni o'z nuqtayi nazariga ko'ra qayta tartibga soldi. Shunga ko'ra yuqorida keltirilgan asarlar, mantiqni bir chetga surib qo'yish, metafizika va tabiiy fanlardagi masalalarning yangi nuqtayi nazardan tartibga surilishini ifodalaydi.

Roziy qarashlariga oid ishlarning aksariyati uning asarlarini ko'proq yoki kamroq darajada asoslashga qaratilgan bo'lib, odatda ularning xronologiyasiga kam e'tibor qaratiladi. Asarlarining hajmi jihatidan— u barcha musulmon ilohiyotchilari va faylasuflarining orasida birinchi o'rind bo'lishga nomzoddir. Asarlarining ko'pi keskin norozilik sabab yoqib yuborilgani yoki chop etilmay qolib ketganiga qaramay boshqa mutafakkirlardan farqli o'laroq, Roziy asarlarining ko'pchiligi, shu jumladan eng muhimlari, bugungi kungacha saqlanib qolgan. Ko'pchiligi, shu jumladan barcha muhim asarlari arab tilida; ba'zilar forsiyda.

Bundan tashqari, boshqa ko'plab mualliflarning amaliyoti kabi, Roziy ham ko'pincha bir kitobda muammoga yaxshilab turli jabhalardan munosabatda bo'ladi va keyingi kitoblarni yozishga o'tishda, ba'zan avvalgi muhokama haqida gapirmasdan, kitobga ishora qiladi. Bir kitobda u boshqa joyda muhokama qilingan mavzularni muhokama qilishdan qochishini yozadi.^[4] Shuning uchun, Roziy asarlarini

^[4] Kamiliyya, (Ar.), 88; (Per.), 114



O'quvchilar uchun uning bir mavzu haqida bahslashishdan chekingan degan tushunchaga kelishi mumkin lekin bu aslida Roziyning bu masala boshqa bir kitobda yetarlicha fikr yuritilgani va uning bu bilan qoniqqanini aglatishi ham mumkin.

Bu holatda biz Roziy asarlarinining aniq sonini aniqlashga va xronologik xolatga keltirishga qodir bo'lamiz. Ba'zi asarlar yozilish tarixini aniqlash uchun juda qiyinchilik qiladi. Bundan tashqari Roziy bir kitob yozganidan so'ng vaqt o'tib uni qayta tahrirlaganligi ham masalani qiyinlashtiradi.

Fahriddin Roziy islom olamiga o'zining ko'p tarmoqli bilimlari bilan juda katta hissa qo'shdi. Uning falsafa, mantiq, astronomiya, ilohiyotshunoslik(kalom), fiqh, tibbiyot va filologiya doirasida yozilgan ko'p sonli asarlari mavjud. Ar-Rozi yoshlik davlarida alkimyoga ham qiziqish bildirgan lekin boshqa ko'plar singari bu sohada o'zi maqsad qilgan natijaga erisha olmagan.

Yoshligidan boshlab falsafa bilan qiziqqan Roziy falsafiy savollar ustida fikr yuritishni boshlaydi. Arab va fors tillarini ravon ishlata olardi. Juda ko'plab argumentatsiya usullarini Ibn Sinodan o'zlashtirgan va xar bir mavzuga tanqidiy yondashish harakteriga ega bo'lgan.

Ash'ariy muhitida ulg'ayganiga qaramay bu yo'nalishning qat'iy tarafdori bo'lmagan. Uning bir muncha erkin fikrlashi sababli uni mu'taziliylardan deb ayblaguvchilar ham topiladi. Bu yerda albatta Roziyning Allohning zotiy sifatlari haqida fikr yuritganini eslatib o'tish kerak. Argumentatsiyada u aynan bir manbaalarga tayanib qolmagan, Musulmon yoki musulmon bo'lmagan faylasuflar metodologiyasini birdek qo'llar edi.

Sakkiz jilddan iborat bo'lgan Mafatiyh al-G'ayb(G'ayb olami kalitlari) asarida u falsafa orqali islom aqiydasini asoslashga harakat qiladi. Qur'on tafsiri bo'lgan bu kitob Katta Tafsir deb ham atalib oldingi tafsirlarga o'xshamagan metodologiyasi bilan ajralib turadi. Kitobda Roziy oyatlar ma'nolariga filologik, falsafiy jihatdan yondoshgan va bunda o'zining o'ziga xos ratsionalistik yo'lini tanlagan edi. Xatto bu tarafdin u ilohiyotchi mutakallimdan ko'ra ko'proq faylasufga o'xshaydi. Uning fikriga ko'ra Hadis aniq (yaqiyin) dalil (Alloh mavjudligi uchun)



bo'la olmaydi va faqatgina taxmin, fikr (zann) bo'lishi mumkin. Roziy o'z asarlari orqali aql va naql uyg'unligiga erishishga harakat qildi.

Roziy yashagan davrda asosan 3 ta tafakkur oqimlari faol bo'lgan. Roziy Sharhu'l-Isharat va al-Matâlibu'l-aliya'da bu 3 guruhni bayon etadi. Bular ilohiyotchilar, faylasuflar va Sufiylardir. Ibn Sīnā'ning al-Ishorāt va't-tanbīhāt haqidagi sharhining "Makāmâtü'l-ârifin" bobida Roziy o'zini haqiqat yo'lidaman deb hisoblovchilarni to'rt qismga bo'lib hisoblaydi: Birinchisi, metafizika fanlarini tafakkur yuritish orqali chuqur o'ylab tekshiradiganlar, bu bilimlarni olish va ularning nozik jihatlarini o'zlashtirishga harakat qiluvchilardir. Ikkinchisi, hech qanday bilim olmasdan, hech qanday imtihon va tadqiqotsiz o'zlarining zarur tabiati va mohiyatini yaratish tufayli shu darajaga moyil bo'lganlardir. Uchinchisi esa har ikki xususiyatga xos bo'lgan jonlardir. Ya'ni, ular o'zlarining ichki tabiatlari, qobiliyatlari tufayli yuksak mansabga intilish uchun yaratilganlar; Keyin bu istak metafizik bilimlarni o'rganish va haqiqatni qidirish bilan kamolga etadi. To'rtinchisi, har ikki xususiyatdan mahrum bo'lgan jonlardir. Bular orasida Roziy uchinchi guruhni ham yuqori baholaydi. Bu ikkala xususiyat bilan xarakterlanadi. Uning so'nggi asarlaridan biri bo'lgan al-Metâlibü'l-âliyada Roziy ilohiyot va bu ilmdagi masalalar haqida insonning aniq va yaqin bilimga uning barcha tafsilotlarida yetib borishi mumkin emas degan fikrni bildiradi. Bu masalalarda inson uchun faqat cheklangan bilimlarga ega chiqish mumkin. Unga ko'ra, metafizikaning yuksak haqiqatlariga yetishning ikki yo'li bor: yovuz kuch sohiblarining qo'llaydigan usul va dalillash usuli.

Roziyning dastlabki asarlarida Ashariylik an'anaviy ratsionalizm ruhi sezilib turadi masalan, *Usul ad-din* va *Ishara* asarlarida buni ko'rishimiz mumkin. Keyinroq yozilgan *Nihayat al-uqul* kabi asarlarda Aristotel mantig'ini Ash'ariy aqiydasini himoya qilish uchun kalom ilmida qo'llashga harakat qilganini ko'ramiz.

So'ngra asarlari mavzusi falsafa, mantiq, tibbiyot, va okkultizmga bag'ishlangan. Bu davrda u *Mabatih* va *Mulakahas* asarlarida falsafani yoki boshqa termin bilan *hikma* ni kalom ilmiga taqqoslab bergan. Bundan so'ng u asarlari orqali Kalom va falsafa sintezini yaratishga harakat qildi.^[5]

^[5] Shihadeh, "From al-Ghazali to al-Razi", 164 ff.



XULOSA

Klassik islom ilmlarini o'rganish o'rta asrlar intellektual tarixining murakkabligi va chuqurligini tushunishga intilayotgan har bir kishi uchun hayotiy harakatdir. Bu an'anaga salmoqli hissa qo'shgan ko'p sonli olimlardan biri ilohiyot, falsafa va tafsirni ajoyib sintezi bilan ajralib turadi. Uning asarlari nafaqat islom intellektual merosini, balki turli madaniyatlar va davrlar o'rtasidagi kengroq muloqotlarni tushunishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Uning hissalarini o'rganish bir necha sabablarga ko'ra muhim ahamiyatga ega.

Uning madaniy ta'siri bevosita kontekstdan ancha uzoqqa cho'zilib, turli mintaqa va davrlarda islom tafakkurining rivojlanishini shakllantiradi. Uning uslub va mulohazalari madrasalarning o'quv dasturlariga kiritilib, keyingi olimlarning asarlaridan ma'lumot berib, uning g'oyalari vaqt o'tishi bilan aks sado berib turishini ta'minladi. Uning ta'sirini tushunish islom ilmining tarixiy davomiyligi va evolyutsiyasini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Tarixiy ahamiyatiga qo'shimcha ravishda, uning hissalarini zamonaviy ta'lim va madaniy kontekstlar uchun amaliy tushunchalarni taklif etadi. Uning turli intellektual an'analarni birlashtirishi zamonaviy fanlararo tadqiqotlar uchun namuna bo'lib xizmat qiladi, olimlarni keng manbalar va istiqbollardan foydalanishga undaydi. Bu yondashuv, ayniqsa, bugungi kunda tobora o'zaro bog'langan va ko'p madaniyatli dunyoda dolzarbdir, bu erda turli nuqtayi nazarlarni boshqarish va birlashtirish qobiliyati har qachongidan ham muhimroqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ayman Shihadeh. "The Teleological ethics of Fahr al-Din al-Razi". Brill Leiden Boston, 2006. – bet 275
2. Shihadeh, Ayman, "From al-Ghazâlî to al-Râzî: 6th/12th Century Developments in Muslim Philosophical Theology", Arabic Sciences and Philosophy, v.15 (2005), Cambridge University Press, 2005, pp.141-179.
3. Tariq Jaffer. "Razi Master of Qur'anic Interpretation and Theological Reasoning". Oxford University Press, 2015. – bet 244.



4. Yacin Ceylan. "Theological and Tafsir in the major works of Fakhr al-Din al-Razi". Thesis presented for the degree of Ph.D. in the Faculty of Arts, University of Edinburg. 1980. – p 264
5. el-Mebâhisü'l-meşrikîye fi 'ilmi'l-ilâhiyyât ve't-tabiiyyât I-II (nşr. M. M. el-Bağdâdî, Dârü'l-Kitâbi'l-Arabî, Beyrut 1990.
6. "Fakhr al-Dîn al-Râzî on Physics and the Nature of the Physical World: A Preliminary Survey", Islam&Sciyence, v.2 (2004), nr.: 2, pp.161-180.
7. Shehadi, Fadlou, Metaphysics in Islamic Philosophy, Caravan Books Delmar, New York 1982.
8. Türker, Ömer, "Kelam İlminin Metafizikleşme Süreci", Dîvân Disiplinlerarası Çalışmalar Dergisi, c.12, sy.23, İstanbul 2007/2, s.75-92.
9. قحرادين الرالزي المباحث المشرقيه منسوخ ٦٦٥ خط عربيه ٢٥٧ ص.